



IQBOL MIRZO SHE'RIYATIDA ANTITEZALARNING QO'LLANILISHI

Yoqubboyeva Shoxista To'raxon qizi

Andijon davlat universiteti

lingvistika (o'zbek tili) yo'nalishi 1-bosqich magistranti

shoxistayoqubboyeva@gmail.com

Telefon: +998 97 683 03 12

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10208528>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20- November 2023 yil

Ma'qullandi: 24- November 2023 yil

Nashr qilindi: 27-November 2023 yil

KEYWORDS

stilistik figuralar, stilistika, tazod, oksyumoron, kontekstual antonimlar.

ABSTRACT

ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo she'rlarida qo'llanilgan badiiy tasvir vositalaridan biri bo'lgan antitezaga misollar berilgan va antitezaning badiiy asardagi o'rni va ahamiyati haqida ham ma'lumotlar berilgan.

Har qanday ijod mahsuli borki, unda badiiy tasvir vositalari ishtirok etmay qolmaydi. Busiz badiiy asar asar bo'lmaydi. Hatto oddiy so'zlashuv uslubida ham ularni uchratishimiz mumkin. Badiiy tasvir vositalari ilmiy adabiyotlarda stilistik figuralar deb yuritiladi. Ma'lumki, stilistik figuralar yordamida badiiy so'zning ifodaviyligi kuchayadi, ranginlashadi, ta'sirchanligi oshadi, muallif tomonidan aytilayotgan fikrning tag maqsadi ochiladi.¹ Badiiy adabiyot tilidagi antiteza usuli (mumtoz adabiyotda bu usul tazod deb yuritilgan) bir-biriga nisbatan qarama-qarshi ma'nolarni beradigan so'zlarni, iboralarni bayonda yonma-yon qo'llash orqali obrazlilikni keltirib chiqarishga asoslangandir. She'riyatda antiteza badiiy nutqning ifodaliligi, ta'sirchaligini ta'minlashda qo'l keluvchi ifoda imkoniyatidir. Antiteza alohida tadqiqot obyekti sifatida G. Keldiyorova tomonidan chuqur tahlil etilgan. "O'zbek tili stilistikasi"da antiteza mantiqiy jihatdan qarama-qarshi bo'lgan ikki qutb (fikir, tushuncha, sezgi va obrazlar)ni qiyoslash ekanligi ko'rsatib o'tilgan.² Badiiy nutq, ayniqsa, she'riyatning ifodaliligi, ta'sirchanligini oshirishda antiteza juda keng ko'lamli ifoda imkoniyati hisoblanadi. Chunki antiteza orqali qahramon ruhiyatidagi kontrastlik, muallif his-tuyg'ulari bo'rttirib tasvirlanadi. Ilmiy manbalarda antiteza ikki xil asosga ko'ra, ya'ni lisoniy hamda kontekstual antonimlar orqali yuzaga kelishi ta'kidlanadi.³

G.Keldiyorova bu fikrni yanada aniqroq ifodalab, antitezani vujudga keltiruvchi asos "... antonim so'zlardan, korrelyativ so'zlardan, inkor so'z shaklidan, oksyumoron ko'rinishidagi

¹ Юлдашев Ж. Усмон Носир шеърларида бадий такрорнинг лингвопоэтик имкониятлари. // ЎТА, 2022, № 1.- Б.90

² Шомаксудов А. ва б. Ўзбек тили стилистикаси. - Т.: Ўқитувчи, 1983. - 234 б.

³ Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. - Т.: Фан, 2007. - 55 б.

birliklardan, bir sinonimik qatordagi so'zlarni kontekstual holda ikkinchi bir sinonimik qatordagi so'zlarga ma'no jihatdan zidlash"dan iboratligini dalillab o'tadi.

She'riyatda sof antonimlardan ko'ra kontekstual antonimlarning ko'proq uchrashini e'tiborga olib, ushbu bo'limda asosiy e'tibor ana shunday matniy antitezaga qaratildi. Shuningdek, sof antonimlar har doim ham antiteza hosil qilavermasligi haqida ayrim she'riy parchalar orqali fikr-mulohazalar bildiriladi. Saminov tadqiqotida oksyumoron va antiteza xususida quyidagi fikrlarni bildiradi:⁴"Oksyumoron ham zidlik asosida shakllanadi(qadrdon begona, azobli rohat), lekin bu zidlik doim ham antonimlikni hosil qilmaydi. Antitezada esa, asosan, to'liq zidlik ma'nosini anglatuvchi vositalar ishtirok etadi (Azob ko'rmay, rohat yo'q(maqol). Oksyumoron va antiteza qarama-qarshi ma'noli so'zlardan yuzaga chiqishi ularning umumiy belgisi, oksyumoron qismlari birikishi, antitezaning qismlari zidlanishi bilan farqlanadi".⁵

Iqbol Mirzo o'z she'rlarida antitezadan juda unumli foydalangan va original qiyoslashlar hosil qila olgan.

*Garchi umrim chizgilari oddiy emas,
Lekin do'st-u dushmanlarim jiddiy emas.
Bir do'st-u bir dushmanim bor – o'zim tengi,
Birisining ismi **she'rdir**, biri – **sevgi**. (152)*

Keltirilgan misolda *do'st, dushman* leksemalari antonim sifatida qo'llanilgani holda, bu ma'noni yanada bo'rttirish uchun kontekstual antonimlar sifatida *she'r* va *sevgi* tushunchalari keltirilib antiteza hosil qilingan.

*Ne qilayki, harna qilsa qilar taqdir,
Bu dayr aro sayrimiz ham muvaqqatdir.
Ikki qayiq boshin tutgan bo'lar nobud:
Birisining ismi – beshik, biri – tobut (152)*

Yuqoridagi misolda ya'ni *beshik* va *tobut* so'zlari o'zaro zidlanib betakror antitezani hosil qilgan. *Beshik – tug'ilish, bu dunyoga kelish, yaratilish* kabi ma'nolarni ifodalashi jihatidan, *tobut – o'lim, bu dunyodan ketish, oxiratga qaytish* kabi ma'nolari bilan *beshik* so'ziga nisbatan zidlangan.

*Bu kamolmi yoki zavolim,
Quvradimmi yo qayta undim,
Hayot yo'qdir sizga savolim,
Hayot, gapingizga tushunmadim. (169)*

Ushbu keltirilgan misolda ham go'zal va original antitezani uchratamiz. Misralarda qo'llangan *kamol, zavol, quvradim, undim* leksemalarini qo'llash orqali shoir ta'sirchan ifoda tuzgan. Ayniqsa **-mi** so'roq yuklamasi hamda **yoki, yo** ayiruv bog'lovchilarining qo'llanishi mazmunni yanada kuchaytirishga xizmat qilgan.

*Qachondir dovdirab turgan qulunlar,
Quyoshni ilk bora ko'rgan qulunlar,
Tuyog'i chalmashib yurgan qulunlar
Uchqur saman bo'pti allaqachonlar.*

⁴ Саминов А. Оксюморон – бадий нутқда лингвопоэтик восита сифатида. Фил.фан. бўйича фалс.док.(PhD) дмсс.автореф. - Фарғона, 2022. -Б.17

Baytda qo'llangan *qulun* (kichiklik belgisiga ko'ra) va *saman* (kattalik belgisiga ko'ra) leksemalari yosh belgisi jihatidan antiteza hosil qilgan. Bunday har ikki yoshga nisbatan, ya'ni qulunga nisbatan *yangi tug'ilgan, quyoshni ilk bora ko'rgan, tuyog'i chalmashib yurgan* kabi belgilar, saman (ot)ga nisbatan *uchqurlik* belgisini nisbatlash orqali kontekstual, uslubiy antiteza yuzaga kelgan. *Qachonlardir* leksemasi esa bunga vaqt bilan aloqador umumiy bir fonni ifodalab kelgan.

Qachondir urgandim unga boshlarim,

Poydevor bo'libdi cho'tir toshlarim.

Kulaymi – yig'laymi, aziz dashtlarim

Bog'-u chaman bo'пти allaqachonlar.

Yuqoridagi misralarda ham nihoyatda tig'iz va insonni mushohada qilishga chorlovchi fikr antiteza usulidan foydalanish orqali juda ta'sirli ifodalangan. Ya'ni shoir boshini urgan kichkina *tosh (cho'tir)* - *poydevor bo'lgani, dashtlari – bog'-u chaman bo'lgani* antiteza usuli orqali tasvirlangan. Unda shoir kechinmalari, o'tgan umri ko'z o'ngimizdan o'tadi. Misra boshida va oxirida takror qo'llangan *allaqachon* leksemasi bu vaqtni yanada uzoqligini ta'kidlashga xizmat qilgan. *Kulaymi-yig'laymi* antonimlik juftliklari esa o'tgan vaqtga achinish va afsuslanish ma'nosini yuklashga xizmat qilgan.

Qachondir ko'zida ko'rgandim yulduz,

Yuzi olma kabi tarang va qirmiz.

Menga ro'molchasin bergan o'sha qiz –

Rangi somon bo'libdi allaqachonlar. (170)

Keltirilgan misrada *yoshlik va qarilik* belgilari asosida antiteza hosil bo'lgan. Kontekstual jihatdan *yuzi qizil, ko'zlari yulduzday chaqnab turgan* (yosh) qiz, *allaqachon rangi somon bo'lgani* (qarib qolgani) antitezani yuzaga chiqargan.

Bahorda quvonchgul ekkandim chog'i,

Ne bois qayg'ugul undi, bilmadim.

Qayerda adashdim, qayda gunohim?

Qayerga bosh uray endi bilmadim. (196)

Shoir yuqoridagi misolda ham *quvonchgul – qayg'ugul* okkozional leksemalarni qarshilantirish orqali original antiteza hosil qilgan. Bu betakror, original tasvir ifodasi boshqa shoirlar ijodida kam uchraydi.

Zer-u zabar – zabar bilan zer bo'ldi,

Yer osmonga chiqdi, osmon yer bo'ldi.

Bog'ni izlab chohni topdim oqibat,

Tog' deb borgan joyim yaydoq qir bo'ldi. (242)

Ertaklar haqiqat ekanimi bu?

Yurakka ko'krak tor kelganimi bu?

Yo visol, yo o'lim deganimi bu?

Bunchalar sevdirding meni, bunchalar? (79)

Bu benavo ko'ngilning

Navosidan so'ylaymi,

Har oshiqning yolg'izlik

Da'vosidan so'ylaymi. (68)

Jonimni og'ritib huzur qilaman. (64)

*Biri eski o'g'ri, biri yangi boy,
Ko'zini yog' bosgan, labi-lunji moy.*

Dili bilan tili kelar poyma-poy

Og'ayni – oshnalar yodimga tushsa. (56)

Yuqorida belgilab ko'rsatib o'tilgan misralarda ham antitezaning shoir tomonidan go'zal va original namunalari yaratilganligini ko'rishimiz mumkin. Unda *osmon-yer, bog'-choh, tog'- qir (matniy), muz- cho'g', ertak – haqiqat (kontekstual), visol – o'lim (kontekstual), navo – benavo, jonni og'ritib – huzur qilmoq, eski o'g'ri – yangi boy (matniy), dili bilan tili – poyma-poy* kabi juftliklar orqali kontekstual antitezalar hosil qilingan.

Xulosa qilib aytganda, she'riyatda qo'llanilgan badiiy tasvir vositalari ifodalilik va ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi. Iqbol Mirzo she'rlarida qo'llanilgan antitezalar o'zining jozibadorligi va originalligi bilan ajralib turadi. Yozuvchining tili va uslubi, boshqa ijodkorlardan ajratib turuvchi o'ziga xos individual jihatlari badiiy tasvir vositalarini qo'llash orqali namoyon bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, shoirning adabiy til taraqqiyotiga qo'shgan hissasi bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Юлдашев Ж. Усмон Носир шеърларида бадий такрорнинг лингвопоэтик имкониятлари. // ЎТА, 2022, № 1.-Б.902.
2. Шомақсудов А. ва б. Ўзбек тили стилистикаси. - Т.: Ўқитувчи, 1983. - 234 б.
3. Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. - Т.: Фан, 2007. - 55 б.
4. Саминов А. Оксюморон – бадий нутқда лингвопоэтик восита сифатида. Фил.фан. бўйича фалс.док.(PhD) дмсс.автореф. - Фарғона, 2022. -Б.17.
5. Iqbol Mirzo. Seni bugun ko'rmasam bo'lmas. – Toshkent, 2018